



XALQARO HUQUQDA TRANSCHEGARAVIY TA'SIR MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH CHORALARI

Abdusalomova Durdonaxon G'anijon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20798068>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 18-iyun 2026 yil
Ma'qullandi: 20-iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 22-iyun 2026 yil

KEYWORDS

transchegaraviy ta'sir, xalqaro huquq, davlat suvereniteti, xalqaro mas'uliyat, mintaqaviy hamkorlik, zararning oldini olish.

ABSTRACT

Ushbu maqolada xalqaro huquqda transchegaraviy ta'sir muammolari nazariy va amaliy jihatdan keng qamrovli tahlil etiladi. Maqolada transchegaraviy ta'sirning huquqiy tabiati, uning asosiy turlari, mavjud xalqaro mexanizmlarning samaradorligi hamda ularni takomillashtirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining ushbu sohada xalqaro hamjamiyatdagi o'rni va milliy qonunchiligini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish zaruriyati alohida tahlil obyektiga aylantirilgan. Shuningdek, maqolada transchegaraviy ta'sirning nazariy asoslari, uning xalqaro ekologik huquq tizimidagi o'rni, davlatlararo munosabatlardagi ahamiyati va huquqiy tartibga solish mexanizmlari chuqur o'rganilgan..

Zamonaviy xalqaro munosabatlar globalashuv jarayonlari ta'sirida tubdan o'zgarimoqda. Davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, ekologik va raqamli aloqalarning kuchayishi natijasida bir davlat hududida yuz bergan voqealar va qabul qilingan qarorlar tobora ko'proq boshqa davlatlar manfaatlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ana shu hodisa xalqaro huquq doktrinasida "transchegaraviy ta'sir" (transboundary effect yoki transfrontier impact) deb ataladi va bugungi kunda uning huquqiy tartibga solinishi eng dolzarb va munozarali masalalardan biriga aylangan.

Transchegaraviy ta'sir muammosi bir necha o'nlab yillar davomida xalqaro huquqshunoslar va siyosatshunoslar e'tiborini tortib kelmoqda. 1941-yildagi mashhur "Trail Smelter"[1] arbitraj ishidan tortib, bugungi kunda kibermakondagi operatsiyalargacha bo'lgan keng doiradagi masalalar ushbu tushuncha ostida jamlangan. Biroq, xalqaro huquqning ushbu sohasida hali ham tizimli yondashuv yetishmaydi va mavjud mexanizmlarning samaradorligi ko'p hollarda kerakli darajada emas.

"Tashqi siyosiy tadqiqotlar va xalqaro tashabbuslar markazi"da o'kazilgan stajirovka ushbu muammoni nafaqat nazariy, balki amaliy-siyosiy kontekstda ham o'rganish imkonini berdi. Markazning faoliyati xalqaro munosabatlar tahlili, tashqi siyosat strategiyalari ishlab chiqish va xalqaro tashabbuslarni monitoring qilishni qamrab oladi. Aynan shu muhit dissertatsiya mavzusiga bevosita tegishli empirik ma'lumotlar to'plash va ularni ilmiy jihatdan

tahlil etish uchun noyob sharoit yaratdi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – stajirovka davomida kuzatilgan tendensiyalar va to‘plangan ma’lumotlar asosida xalqaro huquqda transchegaraviy ta’sir muammolarini tizimlashtirilgan tarzda tahlil etish hamda ularni bartaraf etishning ilmiy asoslangan chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism

Xalqaro huquqda transchegaraviy ta’sir tushunchasi bir necha muhim elementlarni o‘z ichiga oladi: birinchidan, ta’sirning kelib chiqish joyi; ikkinchidan, ta’sir ko‘rsatiladigan hudud; uchinchidan, sabab-natija bog‘liqligi; to‘rtinchidan, ta’sirning sezilarli yoki ahamiyatli (significant) darajada bo‘lishi. Ushbu to‘rtta elementning barchasi mavjud bo‘lganda xalqaro huquq nuqtai nazaridan transchegaraviy ta’sir haqida so‘z yuritish mumkin.

Xalqaro Huquq Komissiyasi (ILC) ning 2001-yilda qabul qilgan “Xavfli faoliyatdan kelib chiqadigan transchegaraviy zararning oldini olish to‘g‘risida”gi Moddalar loyihasida [2] transchegaraviy zarar tushunchasi chuqur tahlil etilgan. Ushbu hujjat davlatlarning o‘z hududlarida yoki nazoratidagi hududlarda amalga oshiriluvchi faoliyat natijasida boshqa davlatlar hududida jiddiy zarar kelib chiqishi ehtimolini minimallashtirishga oid majburiyatlarni belgilaydi. Biroq, bu hujjat yuridik jihatdan majburiy kuchga ega bo‘lmagan “yumshoq huquq” (soft law) manbaiga mansub va uning amaliy tatbiq etilishi davlatlar ixtiyoriga qoldirilgan.

Xalqaro Adolat Sudi (ICJ) ham bir nechta mashhur qarorlarida transchegaraviy ta’sir masalasini ko‘rib chiqqan. 1996-yildagi Yadroviy qurollarning tahdidi yoki qo‘llanilishining huquqiy to‘g‘risidagi maslahat xulosasida sud: “Davlatlar o‘zining yurisdiksiyasi yoki nazorati ostidagi hududlardagi faoliyat boshqa davlatlar muhitiga yoki ular yurisdiksiyasi tashqarisidagi hududlarga zarar yetkazmasligi uchun mas’uldirlar”, deb ta’kidlagan [3]. Bu pozitsiya transchegaraviy ta’sir sohasidagi jus cogens normalari shakllanishiga muhim hissa qo‘shdi.

Zamonaviy xalqaro huquqda transchegaraviy ta’sirning to‘rtta asosiy turi ajratib ko‘rsatiladi. Birinchisi – ekologik transchegaraviy ta’sir. Ushbu tur eng qadimiy va eng yaxshi huquqiy tartibga solingan hisoblanadi. 1972-yilgi Stokgolm Deklaratsiyasining 21-prinsipi [4], 1992-yilgi Rio Deklaratsiyasining 2-prinsipi [5], 1991-yilgi Espoo Konvensiyasi [6] va 1997-yilgi Aarhus Konvensiyasi [7] ushbu sohada muhim xalqaro-huquqiy asos yaratgan. “Trail Smelter” arbitraj ishi (1941) ekologik transchegaraviy zarar uchun davlat mas’uliyatining kalit presedenti bo‘lib qolmoqda. Ikkinchisi – raqamli (kiber) transchegaraviy ta’sir. Bu tur eng yangi va eng kam huquqiy tartibga solingan sohadir. Kiberhujumlar, dezinformatsiya tarqatish, davlat infratuzilmasiga raqamli hujumlar, shaxsiy ma’lumotlarning xalqaro oqimi – bularning barchasi transchegaraviy xarakter kasb etadi. Tallinn Qo‘llanmasi 2.0 (2017) [8] ushbu sohadagi mavjud xalqaro huquq normalarini tizimlashtirish urinishi bo‘lsa-da, u majburiy kuchga ega emas. Uchinchisi – iqtisodiy transchegaraviy ta’sir. Bir davlatning iqtisodiy siyosati – unilaterall sanksiyalar, raqobat siyosati, valyuta kursi manipulyatsiyasi, subsidiyalar tizimi – boshqa davlatlar iqtisodiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatishi mumkin. To‘rtinchisi – insoniy transchegaraviy ta’sir. Bu tur bir davlatning ichki qonunlari yoki davlat organlari harakatlarining boshqa davlatlar fuqarolarining huquqlariga ta’sirini o‘z ichiga oladi. Mehnat migratsiyasi, ma’lumotlar himoyasi, ekstraditsiya va terrorizmga qarshi kurash sohasidagi masalalar ushbu kategoriyaga kiradi.

“Tashqi siyosiy tadqiqotlar va xalqaro tashabbuslar markazi” da o‘kazilgan stajirovka ikki asosiy komponentni o‘z ichiga oldi: amaliy tahliliy ish va nazariy tadqiqot. Markaz faoliyatining asosiy yo‘nalishlari – xalqaro munosabatlar monitoring qilish, tashqi siyosat strategiyalari tahlili, mintaqaviy xavfsizlik va xalqaro huquq masalalarida ekspert xulosalari tayyorlash – dissertatsiya mavzusiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq edi.

Stajirovka davomida qo‘llanilgan asosiy tadqiqot metodlari quyidagilardan iborat bo‘ldi: xalqaro hujjatlar va davlatlar amaliyotini qiyosiy tahlil qilish; markazdagi yetakchi ekspertlar bilan o‘kazilgan suhbatlar ; xalqaro konferensiya va seminarlar materiallarini o‘rganish; mintaqamizga daxldor transchegaraviy muammolar bo‘yicha holatlarni monitoring qilish. Ushbu metodlarning birgalikda qo‘llanilishi tadqiqotning empirik bazasini sezilarli darajada kengaytirdi va nazariy xulosalarni amaliy kuzatuvlar bilan mustahkamlash imkonini berdi.

Markaz faoliyatini kuzatish jarayonida xalqaro tashabbuslarning transchegaraviy ta‘sir muammolarini hal etishdagi roli naqadar muhim ekanligini yaqqol ko‘rish mumkin bo‘ldi. Mintaqaviy va ikki tomonlama diplomatik kelishuvlar ko‘pincha universal xalqaro shartnomalar bo‘lmagan hollarda samarali alternativ mexanizm sifatida xizmat qilmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslari bo‘yicha transchegaraviy munosabatlar masalasi alohida ahamiyat kasb etdi. Amudaryo va Sirdaryo havzasidagi suv taqsimoti muammosi davlatlar o‘rtasida doimiy diplomatik muloqotni talab etmoqda. Markazda amalga oshirilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, xalqaro suv huquqi normalariga mos keladigan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama kelishuvlar, Orolni Qutqarish Xalqaro Jamg‘armasining faoliyati bilan birgalikda, mintaqadagi eng samarali transchegaraviy boshqaruv modellaridan birini tashkil etmoqda.

Energetika sohasi bo‘yicha kuzatuvlar ham muhim xulosalar berdi. Markaziy Osiyo davlatlarining bir-biriga bog‘liq energetika infratuzilmasi transchegaraviy ta‘sirning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda: bir davlatda qabul qilingan energetika siyosati qarorlari qo‘shni davlatlar aholisining elektr energiyasi bilan ta‘minlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Bu masala nafaqat iqtisodiy, balki insoniy xavfsizlik jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi uchun transchegaraviy ta‘sir masalasi bir necha muhim kontekstda alohida ahamiyat kasb etadi. Geografik joylashuvi, mintaqadagi iqtisodiy va siyosiy salohiyati, Orol dengizi fojeasining bevosita ishtirokchisi ekanligi – bularning barchasi O‘zbekistonni ushbu sohadagi xalqaro munosabatlarda faol ishtirokchi sifatida belgilaydi.

Suv resurslari sohasida transchegaraviy ta‘sir O‘zbekiston uchun eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. 1992-yilda imzolangan Olmaota Bitimi va keyinchalik tashkil etilgan Orolni Qutqarish Xalqaro Jamg‘armasi ushbu sohadagi mintaqaviy mexanizmlar sifatida faoliyat ko‘rsat moqda. Biroq, iqlim o‘zgarishlari, suv sarfini oshiruvchi texnologiyalar va demografik o‘shish kontekstida mavjud mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarurligi shubhasizdir.

Energetika sohasi ham transchegaraviy ta‘sir masalasida O‘zbekiston uchun strategik ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo energetika halqasiga qayta ulanganligi va qo‘shni davlatlar bilan elektr energiyasi eksport-import shartnomalarining faollashishi ushbu sohadagi xalqaro huquqiy kafolatlar zaruriyatini yanada kuchaytirmoqda. Raqamli transchegaraviy ta‘sir sohasida ma‘lumotlarni chegaradan o‘tkazish, raqamli platformalarning eksterritorial ta‘siri va kiberxavfsizlik masalalari milliy qonunchilik va xalqaro standartlar o‘rtasidagi muvofiqlikni talab etmoqda. Ekologik transchegaraviy ta‘sir sohasida O‘zbekiston

xalqaro shartnomalar ishtirokchisi sifatida muhim o‘rin tutadi. Biroq milliy qonunchilikda “transchegaraviy ta‘sir” tushunchasining va uni tartibga soluvchi protsessual normalarning to‘liq shakllanmaganligi, bu sohadagi xalqaro majburiyatlarni to‘liq bajarishda qiyinchiliklar tug‘dirmoqda.

Xalqaro-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish transchegaraviy ta‘sir muammolarini hal etishda birlamchi ahamiyat kasb etadi. Birinchi yo‘nalish – majburiy ta‘sir baholash tartiblari (EIA/SEA) doirasini kengaytirish. Espoo Konvensiyasi modeliga asoslanib, ko‘proq sohalarni qamrab oluvchi va barcha manfaatdor davlatlar ishtiroki bilan amalga oshiriladigan majburiy baholash tartiblarini xalqaro shartnomalarga kiritish zarur. Ikkinchi yo‘nalish – arbitraj va mediatsiya mexanizmlarini kuchaytirish: transchegaraviy ta‘sir bo‘yicha nizolarni hal etishda maxsus arbitraj tribunallarining vakolatini kengaytirish kerak. Uchinchi yo‘nalish – “ifloslantiruvchi to‘laydi” prinsipi doirasini kengaytirish. Bu prinsip ekologiya sohasida yaxshi ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, raqamli va iqtisodiy transchegaraviy ta‘sir sohasida uning ekvivalenti hali to‘liq shakllanmagan. To‘rtinchi yo‘nalish – oshkorlik va ma‘lumot almashishni institutsional tartibda ta‘minlash: davlatlar o‘rtasida transchegaraviy ta‘sir xavfi bo‘lgan faoliyat to‘g‘risida oldindan bildirishnoma berish, ma‘lumot almashish va konsultatsiyalar o‘kazish uchun majburiy protseduralar belgilash zarur.

Mintaqaviy darajadagi choralarda ko‘pincha universal xalqaro mexanizmlardan ko‘ra samaraliroq natija beradi, chunki ular manfaatdor tomonlarning o‘ziga xos muammolari va ehtiyojlarini hisobga oladi. Ikki tomonlama shartnomalar tizimini kengaytirish transchegaraviy ta‘sirni tartibga soluvchi eng samarali mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu shartnomalar barcha transchegaraviy ta‘sir turlarini qamrab olgan holda tuzilishi lozim. Mintaqaviy monitoring tashkilotlari vakolatini kuchaytirish ham muhim yo‘nalish hisoblanadi. Markaziy Osiyo mintaqasida mavjud institutlar doirasida transchegaraviy ta‘sir masalalarini monitoring qilish va baholash bo‘yicha maxsus mexanizmlar yaratish maqsadga muvofiq. Katta miqyosli transchegaraviy ta‘sir xavfi to‘g‘ridagi manfaatdor davlatlarni o‘z vaqtida ogohlantirish uchun avtomatlashtirilgan ilk ogohlantirish tizimlari (Early Warning Systems) mintaqaviy darajada joriy etilishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi uchun birinchi navbatda milliy qonunchilikda “transchegaraviy ta‘sir” tushunchasini normativ jihatdan mustahkamlash zarur. Hozirda O‘zbekiston qonunchiligida ushbu tushuncha mustaqil huquqiy kategoriya sifatida to‘liq belgilanmagan. “Atrof-muhitni muhofaza qilish” to‘g‘risidagi Qonun va boshqa tegishli me‘yoriy hujjatlarga xalqaro standartlarga mos keladigan transchegaraviy ta‘sir institutini kiritish lozim. Vakolatli davlat organlari o‘rtasida koordinatsiyani ta‘minlash ham dolzarb masala hisoblanadi. Transchegaraviy ta‘sir masalalari bir nechta vazirlik va idoralar –Tashqi ishlar vazirligi, Ekologiya vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Energetika vazirligi vakolat doirasiga kiradi. Ushbu organlar o‘rtasida muvofiqlashtirilgan mexanizm yaratish zaruriyati aniq ko‘rinmoqda. Xalqaro shartnomalar bo‘yicha parlamentar nazoratni kuchaytirish va milliy tadqiqot hamda ekspertiza salohiyatini rivojlantirish ham strategik ahamiyat kasb etadi. Xalqaro huquqdagi transchegaraviy ta‘sir masalalari bo‘yicha milliy ekspertlar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash uzoq muddatli investitsiya sifatida ko‘rib chiqilishi zarur.

Xulosa

Transchegaraviy ta‘sir xalqaro huquqning turli tarmoqlarini kesib o‘tadigan ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, unga nisbatan tizimli va kompleks yondashuv zarur. Mavjud xalqaro huquqiy

mexanizmlar transchegaraviy ta'sir muammolariga to'liq to'liq yechim bo'la olyapti deb bo'lmaydi – bu sohada yangi standartlar va mexanizmlarni ishlab chiqish zarurligi yaqqol ko'rinmoqda. Mintaqaviy va ikki tomonlama kelishuvlar va bitimlar ko'pincha universal xalqaro mexanizmlar yetarli bo'lmagan holatlarda samarali muqobil sifatida xizmat qilmoqda. O'zbekiston uchun suv resurslari, energetika, raqamli iqtisodiyot va ekologiya sohalarida milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Iqtiboslar / references:

1. Trail Smelter Arbitration (USA v. Canada), 1941 // Reports of International Arbitral Awards. – Vol. III. – P. 1905–1982.
2. Stockholm Declaration on the Human Environment, 1972. – UN Doc. A/CONF.48/14/Rev.1.
3. Rio Declaration on Environment and Development, 1992. – UN Doc. A/CONF.151/26.
4. Convention on Environmental Impact Assessment in a Transboundary Context (Espoo Convention), 1991. – UNTS, vol. 1989.
5. Convention on Access to Information, Public Participation in Decision-Making and Access to Justice in Environmental Matters (Aarhus Convention), 1998.
6. ILC Draft Articles on Prevention of Transboundary Harm from Hazardous Activities, 2001 // YILC. – 2001. – Vol. II
7. Articles on Responsibility of States for Internationally Wrongful Acts, 2001. – UN Doc. A/56/10.
8. ICJ. Legality of the Threat or Use of Nuclear Weapons, Advisory Opinion, 1996 // ICJ Reports 1996. – P. 226.
9. Tallinn Manual 2.0 on the International Law Applicable to Cyber Operations / Ed. by M. Schmitt. – Cambridge University Press, 2017. – 598 p.
10. Birnie P., Boyle A., Redgwell C. International Law and the Environment. – 3rd ed. – Oxford University Press, 2009. – 851 p.
11. UN Group of Governmental Experts on Developments in Cyberspace. Reports 2021, 2024.